

SHART KOMPONENTLI GIPOTAKSEMALARING LINGVOKOGNITIV TAHLILI

Ubaydullayeva Durdona Raxmonjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Ingliz filologiyasi kafedrasи o‘qituvchisi

ubaydullayevadurdonaxon464@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarining kognitiv jihatlari tahlil tortilgan. Ularda ifodalangan shart-natija munosabatlarini tushunishning ahamiyati yorilgan, shuningdek bu munosabatlarning har ikki til doirasidagi misollar yordamida tahlili, nutq faoliyati va kognitiv jarayonlar orasidagi bog‘liqliklar tavsifi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Shart komponentli gipotaksema, kognitiv faoliyat, nutqiy faoliyat, ong va tafakkur.

Abstract: This article analyzes the cognitive aspects of conditional component hypotaxemes in English and Uzbek languages. The importance of understanding the condition-result relations expressed in them is revealed, as well as the analysis of these relations with the help of examples in both languages, the description of the connections between speech activity and cognitive processes is shown.

Key words: conditional component hypotaxema, cognitive activity, speech activity, consciousness and thinking.

Аннотация: В данной статье анализируются когнитивные аспекты гипотаксем условного компонента в английском и узбекском языках. Выявлена важность понимания выраженных в них отношений «условие-результат», а также анализа этих отношений с помощью примеров на обоих языках, показано описание связей между речевой деятельностью и познавательными процессами.

Ключевые слова: условный компонент гипотаксема, познавательная деятельность, речевая деятельность, сознание и мышление.

KIRISH

SHKGlar ikki voqeа-hodisa yoki vaziyat o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi, ko‘pincha shart va natija-oqibatni o‘z ichiga olgan lisoniy birliklardir. Ularni ham lingvistik, ham kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin.

V.Demyankovning talqiniga ko‘ra lisoniy faoliyat – kognitiv faoliyat bilan bevosita bog‘liq, uning ajralmas bir qismi. Ammo kognitiv tilshunoslik, kognitologiyaning boshqa sohalaridan farqli holda, inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o‘zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo‘sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. Kognitivist – tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o‘rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. Lekin bu qiziqish oddiy emas. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatları munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo‘lgan muloqot matnlari – lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi. Demak, kognitiv tilshunoslik asosan inson lisoniy faoliyatini sabab va oqibat bog‘liqligida tadqiq etuvchi, “tushuntiruvchi” fan sohasidir.[1]

Bunday tadqiq ikki yo‘nalishda bajariladi: a) nutqiy faoliyat ijrosi va uning mahsulining paydo bo‘lishi; b) ushbu faoliyat mahsulotlarining idrok etilishi. Ko‘rsatilgan vazifalarning bajarilishi ko‘p jihtdan tanlangan yo‘nalish va uslubning bevosita til materialiga tadbiq etilishi bilan bog‘liqdir. [2]

NATIJA VA TAHLIL

Yuqoridagi nazariyalarga tayangan holda, SHKGlarga lingvokognitiv yondashuvni quyidagicha jihat shundaki, bunday turdagи gipotaksemarda bosh gapda ko‘zlangan oqibatning amalga oshishi, shart komponentda ifodalangan shartni bajarilishi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, natija-oqibat munosabatlarini yuzaga kelishiga shart mazmunini amalga oshishi sabab bo‘ladi. SHKGlar nutq faoliyatida turli ko‘rinishlarda amalga oshadi, (real, noreal, ehtimoliy, faraziy, taxminiy) ularning kognitiv asosi aynan ushbu nutq faoliyati mahsullarini bizning ongimiz qay tarzda idrok etishi, tushunishi va tahlil qilish usulini o‘z ichiga oladi.

SHKGlarning lingvokognitiv jihat quyida misollar yordamida tahlil qilindi.

1. Umumiy haqiqat yoki faktlarni tasvirlaydi.

Misol: *If you heat water to 100 degrees Celsius, it boils.*

Agar suv 100 daraja Selsiyga yetsa, u qaynaydi.

Kognitiv jihat: Ushbu holat inson ongida shart va natija o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va o‘zgarmas munosabatlar idrok etiladi.

2. Kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holat va uning ehtimoliy natijasini tavsiflaydi.

Misol: *If it rains tomorrow, I will stay at home.*

Ertaga yomg‘ir yog‘sa, biz uyda qolamiz.

Kognitiv jihat: Inson kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqeа-hodisa va uning ehtimoliy oqibatlarini oldindan anglab tahlil qiladi.

3. Real bo‘lmagan yoki taxminiy hozirgi zamon yoki kelajak zamondagi holatni va uning ehtimoliy natijasini tavsiflaydi.

Misol: *If I won the lottery, I would travel the world.*

Agar lotereyada yutsam, dunyo bo‘ylab sayohat qilgan bo‘lardim.

Kognitiv jihat: Bu turdagи SHKG hozirgi vaqtда noreal, ya’ni haqiqat bo‘lmagan vaziyatni tasavvur qilishni va uning faraziy natijasini hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

4. Haqiqiy bo‘lmagan yoki taxminiy o‘tmishdagi holatni va uning ehtimoliy natijasini tasvirlaydi.

Misol: *If she had studied harder, she would have passed the exam.*

Agar u qattiqroq o‘qiganida, u imtihondan o‘tgan bo‘lardi.

Kognitiv jihat: Inson onggi o‘tmishda sodir bo‘lmagan voqeа haqida fikr yuritadi va agar sodir bo‘lsa, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan natija haqida taxmin qiladi.

5. Misol: *If he had taken the job, he would be rich now.*

Agar u ishga kirganida, hozir boy bo‘gan bo‘lardi.

Kognitiv jihat: Ushbu turdag'i SHKGlarda o'tmish, hozirgi kun hamda kelajak zamon hosbga olgan holda, bir vaqtning o'zida qayta idrok qilib, tahlil qilishni o'z ichiga oladi, bu esa yanada murakkab kognitiv jarayonni talab qiladi.

XULOSA

Umuman olganda, SHKGlarni idrok etish, shart va natija-oqibat o'rtasidagi munosabatlarni tushunish, bu shartlarning ehtimoli yoki aniqligini hisobga olishni va ba'zi hollarda real, ya'ni haqiqatdan ham sodir bo'ladigan yoki oqibat sodir bo'lishi uchun o'tmishda sharti bajarilmagan vaziyatga nisbatan afsuslanish holatlari haqida fikr yuritish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. SHKGlarning kognitiv asosida ong va taffakkurda ularni anglash va nutq faoliyatda qo'llash, oldin bashorat qilish, tasavvur qilish va mulohaza yuritish kabi kognitiv jarayonlar asosiy rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, SHKGlar sabab va oqibatni ta'sirni tushunish, kelajakdagi voqealarni oldindan bilish, sodir bo'lish ehtimoli mavjud bo'lgan vaziyatlarni tasavvur qilish, o'tmish haqida fikr yuritish va vaqtning turli nuqtalari bo'ylab aloqalarni o'rnatish kabi turli kognitiv qobiliyatlarni o'zida namoyish etadi. Ular inson ongi va tafakkurining murakkab tabiatini haqida qimmatli tushunchalar beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Langacker R.W. A View of Linguistic Semantics. Topics in Cognitive Linguistics. –Amsterdam/Philadelphia: J. Benjamins, 1988.
2. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретующего подхода // Вопросы языкоznания, 1994, №4. – С. 17-33.
3. Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 75 б.